“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Qochqinlar, ularning huquqlari va bu sohada O‘zbekistonning pozitsiyasi

Azizbek Abdumurodov,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti talabasi
e-mail: abdumurodovazizbek2110@gmail.com

Аннотация. Hozirgi dunyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat tufayli har yili qochqinlarning soni keskin oshib bormoqda. Ular xalqaro hamjamiyatda eng muhim va dolzarb mavzuga aylangani bilan ko‘plab bahslar va munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu yerda kimlar qochqin deb hisoblanishi, inson qanday qilib qochqinga aylanishi to‘g‘risida savollar kelib chiqadi. Shuningdek, ularning huquqlari himoyasi global muammo darajasiga ko‘tarilgan. Ularning qochib kelishga majbur bo‘lgan davlatlarga turli sohalardagi ta’siri esa hamon ziddiyatli masaladir. Dunyodagi eng ko‘p qochqinlar Afg‘oniston va Yaqin Sharq mamlakatlaridan ketgan hisoblanadi. Buning natijasi ushbu hududga o‘ta yaqin bo‘lgan O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmagan. Ushbu maqola qochqinlar haqidagi yuqorida aytilgan savollarga javob berishga, hozirgi dunyodagi vaziyatni to‘liq yoritib berishga va shu jumladan, O‘zbekistonning qochqinlarga qaratilgan siyosatini yoritishga qaratilgan.

Калит сўзлар. qochqin, boshpana izlovchi, xalqaro huquq, 1951-yilgi qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya, 1967-yilgi protokol, iqtisodiyot, BMT Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi, gumanitar siyosat, O‘zbekiston va qochqinlar, mintaqaviy hamkorlik.

Аннотация. В связи со сложившейся политической и экономической ситуацией в мире, количество беженцев с каждым годом резко увеличивается. С тем, что они стали самой важной и актуальной темой в международном сообществе, они порождают множество споров и дискуссий. В связи с этим возникают вопросы о том, кто считается беженцем и как человек становится беженцем. Кроме того, защита их прав поднялась до уровня глобальной проблемы. И их влияние на вынужденные бежать страны в различных сферах до сих пор остается спорным вопросом. Считается, что самое большое число беженцев в мире прибыло из Афганистана и нескольких стран Ближнего Востока. В результате он не обошел стороной и Узбекистан, который находится в непосредственной близости от этого района. Данная статья призвана ответить на вышеуказанные вопросы о беженцах, дать полный отчет о ситуации в мире в настоящее время, в том числе о политике Узбекистана по отношению к беженцам.

Ключевые слова. беженец, ищущее убежище, международное право, Конвенция о статусе беженцев 1951 года, Протокол 1967 года, экономика, Верховный комиссар ООН по делам беженцев, гуманитарная политика, Узбекистан и беженцы, региональное сотрудничество.

Annotation. Due to the current political and economic situation in the world, the number of refugees is increasing dramatically every year. With the fact that they have become the most important and relevant topic in the international community, they give rise to a lot of debates and discussions. This raises questions about who is considered a refugee and how a person becomes a refugee. Also, the protection of their rights has risen to the level of a global problem. And their impact on countries forced to flee in various spheres is still a controversial issue. The largest number of refugees in the world is believed to have come from Afghanistan and several Middle Eastern countries. As a result, it did not bypass Uzbekistan, which is extremely close to the area. This article is aimed at answering the above questions about refugees, giving a full account of the situation in the world now, including the policy of Uzbekistan towards refugees.

Keywords. refugee, asylum seeker, international law, 1951 Convention relating to the Status of Refugees, 1967 Protocol, economy, UN High Commissioner for Refugees, humanitarian policy, Uzbekistan and refugees, regional cooperation.

Qochqin bu ta'qib, urush yoki zo'ravonlik tufayli o'z mamlakatini tark etishga majbur bo'lgan kishi. Tabiiyki, odamlar o'z mamlakatidan turli sabablariga ko'ra qochishga majbur bo'lishgandan so'ng boshqa mamlakatdan boshpana topishga harakat qilishadi. Shuningdek, ular huquqiy himoya va moddiy yordam olish huquqini qo'lga kiritish maqsadida qochqin statusi uchun murojaat qilishadi. Qochqin statusi qo'lga kiritulguncha shaxs **boshpana izlovchi** sifatida e'tirof etiladi. Boshpana izlovchi o'z mamlakatida ta'qiblardan qo'rqish asosli ekanini namoyish etishi kerak.

Qochqinlar o'z davlatini tark etishiga sabablar. Endilikda, insonlar nega o'z ona yurtlarini tark etib o'zga yerda sargardon bo'lib yurishga majbur ekanligiga sabab bo'layotgan omillar haqida gaplashsak.

1. Davlatlararo urushlar. Minglab jasadlar, millionlab uysiz qolgan insonlar, vayronaga aylangan shaharlar – bularning barchasiga sabab esa bitta – urush. Zamonaviy dunyoda ko'p holatlarda davlatlarning geopolitik va iqtisodiy manfaatlari bir-biriga to'g'ri kelmaydi va bu ba'zi holatlarda qurolli to'qnashuvlarga olib kelmoqda. Hozirda faol davom etayotgan Rossiya va Ukraina yoki Isroil va Falastin o'rtasidagi qirg'inbarot shular jumlasidandir. Bu ikki konfliktni oddiy xalqqa qanday ta'sir qilganligini ko'rib chiqamiz.

Isroil-Falastin konfliktini ko'rib chiqamiz. Aytish joizki, bu urushning ko'p qismi Falastin hududida va aynan aholi punktlarida,

ularni to‘liq evakuatsiya qilinmasidan yuz bermoqda. Shuning uchun, Falastinliklar uchun bu urush ta’riflab bo‘lmas darajada talofat yetkazmoqda. Statistikalarga e’tibor bersak, G‘azo sektoridagi 2 mlndan ortiq aholining barchasi ochlikdan qiynalmoqda. Dunyodagi ochlikning 80% hozirda G‘azo sektoriga to‘g‘ri kelmoqda. Hududdagi oziq-ovqat, suv, dori-darmonning barchasi uchun aholi tashqaridan keladigan yordamga tayanadi. 1,7 mln aholi esa qochqinlik statusi ostidadir.

2. Genotsid. Qochqinlikka olib keluvchi omil faqatgina siyosiy maqsadlarga bog‘liq emas. Bu ma’lum bir shaxslarning guruhiga, ularning boshqacha biron tomoni boshqacha bo‘lganligi uchun nafrat orqasidan kelishi ham mumkin. Bunga yaqqol misol 1933 – 1945-yillarda Germaniya hokimiyati ustida turgan fashistik kuchlar tomonidan yahudiylarni qirib tashlashga bo‘lgan urinishdir. Buning natijasida 340000 ga yaqin yahudiy qochqinga aylanadi. Dahshatli tarafi esa bundan 100000 dan ortiq qismi ular qochgan davlatning Germaniya tomonidan bosib olinishi natijasida qo‘lga tushadi. Qolgan qismi esa asosan Britaniya qo‘l ostidagi Falastin hududiga yoki AQSHga ketadi.

Afsuski, hozirda insoniyat genotsiddan to‘liq halos bo‘ldi deya olmaymiz. Ammo, tobora kengayib borayotgan diniy bag‘rikenglik, barcha irqlarning tengligi va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik kabi tushunchalar bunga yordam bera oladi. Shu o‘rinda, ko‘plab odamlar bilmaydigan, ammo genotsid, diskriminatsiya va ta’qib tufayli qochishga majbur bo‘lgan millionlab aholi mavjud bo‘lgan davlat haqida gaplashsak. Bu davlat Myanma. Ushbu davlatning Raxina shtatida 2017-yil ommaviy zo‘ravonlik avj oldi. Bu harakatlar “Rhingya” deb ataluvchi guruhga qaratilgan edi. Rohingyalar bu Myanmadagi ozchilikni tashkil etuvchi etnik musulmon guruh. Ular bu hududda bir necha avlodlardan beri yashayotganiga qaramay, ular hamon etnik guruh sifatida tan olinmagan va 1982-yildan beri fuqarolik rad etilmoqda. Bu ularni dunyodagi eng katta davlatsiz aholiga aylantiradi. Bu genotsid natijasida ko‘plab qishloqlar yondirib yuborildi, minglab oilalar qirib tashlandi va 742000 rahingyaliklar Bangladeshga qochishga majbur bo‘ldi. 2023-yil oxiriga kelib 1,3 mln odam Myanmadan chiqib ketadi va bundan 1 mlni Bangladeshda joylashgan. Bangladeshdagi Cox’s bazar hududi dunyodagi eng katta va zich joylashgan qochqinlar lageridan biri hisoblanadi.

3. Iqlim o‘zgarishi. Bu holat tarixda ham, hozirda ham qochqinlikka asosli sabab deb e’tirof etilmagan. Hatto 2013-yilda Kiribatilik bir shxs Yangi Zelandiyada qochqinlik statusini qo‘lga kiritishga uringan, ammo, bu samarasiz yakunlangan. Lekin, yildan-yilga kuchayib borayotgan global isish, suv sathining ko‘tarilishi va boshqa muammolar kelajakda qochqinlarning soniga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Qochqinlarning huquqlarini himoya qilish va ularga munosib hayotni ta’minlash maqsadida xalqaro hamjamiyat tomonidan bir qancha harakatlar amalga oshirilgan. Bular jumlasiga, qonun

hujjatlari qabul qilinishi, xalqaro tashkilotlar tashkil etilishi va ularga ko‘rsatilayotgan gumanitar yordamlarni kiritishimiz mumkin.

Qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya. Ushbu konvensiya 1951-yil 28-iyul BMT Muxtor vakillar konferensiyasida qabul qilingan va o‘zining 43-moddasiga ko‘ra 1954-yil 22-aprel kuchga kirgan. Uning turli hil nomlari mavjud: 1951-yilgi qochqinlar konvensiyasi yoki 1951-yil 28-iyul Jeneva konvensiyasi. Hozirda ushbu konvensiya 149 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Uning tarkibiga kelsak, u 7 bob, 46 moddadan iborat. Konvensiyani biz xalqaro huquqning yutuqlaridan biri deb hisoblasak noo‘rin bo‘lmaydi. CHunki, u qochqin atamasiga ta’rif va ularning maqomini belgilab bergan, ularning fundamental huquqlarini mustahkamlagan va davlatlarning ularni himoya qilishdagi majburiyatlarini ko‘zda tutuvchi muhim hujjat. Quyida har bir bob bilan yaqinroq tanishamiz:

1967-yilgi Protokol. Qochqinlar to‘g‘risidagi konvensiya qanchalar mukammal bo‘lmasin, uning qoidalari asosan o‘sha davrdagi holatlar va faqatgina Yevropa uchun amal qilardi. Buni to‘g‘rilash va konvensiya qoidalarini butun dunyoga tatbiq etish maqsadida 1967-yil 31-yanvar kuni protokol qabul qilindi. Protokolni ratifikatsiya qilgan davlat tabiiy ravishda konvensiyaning qoidalarini ham qabul qilgan deb hisoblash mumkin. Hozirda 146 davlat ushbu protokolni ratifikatsiya qilgan. Quyida protokol va konvensiyani qabul qilgan davlatlar xaritalashtirilgan variant.

BMT Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi. Maqolaning bir qancha qismlarida ushbu tashkilotning nomi tilga olindi. Keling, endi u haqida so‘z yuritsak. U BMTning qochqinlar, boshpana izlovchilarning huquqlarini himoya qilish va ularga yordam berishga yo‘naltirilgan tashkilotidir. U davlatlar va boshqa hamkorlar bilan birgalikda qochqinlar uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash, hujjatlashtirish va ish-joyini ta’minlashga harakat qiladi. Ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, ushbu tashkilot dunyo bo‘ylab 130 dan ortiq davlatda faoliyat yuritadi va oxirgi 10 yillikda 1 mlndan ortiq qochqinga yangi davlatda o‘z hayotlarini qayta qurishga yordam bergan. Shuningdek, deyarli 10 mln insonga zaruriy tibbiy yordamlar yetkazilgan. Bunday yaxshi natijalarga qaramasdan, qochqinlar soni minglab kishilarga kamayotgan paytda, boshqa millionlab insonlar qochqinga aylanmoqda. Shu sababli, komissarlik oldidagi yechim kutayotgan muammolar brogan sari ko‘paymoqda. Xabarlarga ko‘ra tashkilot 2025-yilda 10 mlrd dollarlik loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ygan.

Gumanitar yordam va qochqinlarga berilayotgan imkoniyatlar. Ko‘rdikki, qochqinlar oddiy ichimlik suvi va ovqat kabi ehtiyojlar uchun ham boshqa tashkilotlar yoki davlatlar tomonidan yuboriladigan yordamga muhtoj holatdalar. Bu yordamlar hozirda eng kerak bo‘lgan xalq bu yuqorida aytganimizdek Falastinliklar. Boshqa qochqinlardan farqliroq ravishda ular o‘z hududlaridan boshqa joyga chiqib ketishi uchun imkoniyat yo‘q. Urush boshlangandan beri esa ekin maydonlarining 22%i, baliq ovlovchi

kemalarning 70%i yo‘q bo‘lib ketdi. Yuborilayotgan gumanitar yordamlarning atiga 21%i xalqqa yetib bora olgan.

Qochqinlarning salbiy taraflari. Albatta, biron davlatga minglab kutilmagan insonning kirib kelishi o‘zining negativ ta’sirlarini bildirmay qolmaydi. Rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan davlatlarda bu oqibatlar o‘ta og‘ir keladi. Ma’lumotlarga ko‘ra dunyodagi 43 mln qochqinning 71%i past yoki o‘rta daromadli davlatlarda joylashgan. Ushbu ta’sirlarning bir qancha yo‘llarda namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqamiz:

1. Resurslarning bo‘linishi va iqtisodiyot. Qochqinlarning kelishi davlatdagi resurslarga o‘z bosimini bermay qolmaydi. Bu, albatta, davlatning iqtsidoiy imkoniyatlari va qochqinlarning soniga bog‘liq bo‘ladi. Resurs deganda barcha oziq-ovqat, sog‘liqni saqlash, va ish o‘rinlari nazarda tutilmoqda.

Oziq-ovqat defitsiti haqida so‘z yuritsak. Avvalambor, mahalliy ishlab chiqarish kam bo‘lgan va importga tayanadigan davlatlar uchun bu eng qiyin holat bo‘ladi. Oziq-ovqat kamayadi ammo talab ko‘payib boraveradi. Yuqorida tilga olingan Bangladeshdagi “Rohingya” guruhi bunga misol. Ma’lumki, Bangladeshning dunyodagi aholisi eng zich joylashgan davlatlardan biri. Uning hududi o‘ta kichik bo‘lishiga qaramasdan 150 mln dan ortiq aholisi mavjud. Buning ustiga Myanmadan kelgan qochoqlar natijasida ahvol yanada og‘irlashadi va bozordagi narxlar keskin ko‘tariladi. Statistikaga ko‘ra, kundalik mahsulotlarning narhi o‘rtacha 50 %ga oshgan.

Sog‘liqni saqlashga kelsak, tibbiyot xodimlarining qochqinlarga yordam berish uchun safarbar etilishi, mahalliy aholini maqbul tibbiy yordamga ega bo‘lishini qiyinlashtiradi. Ko‘p holatlarda dori-darmonlar yetishmovchiligi ham yuzaga keladi.

Ko‘p davlatlarning iqtisodiyoti bu darajada keng emas. Va qochqinlarga ish berilishi mahalliy aholi orasida ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi. Shu sababli dunyodagi qochqinlarning 70%i ular uchun ishlashning har qanday turi man etilgan joylarda yashashmoqda.

2. Madaniyat. Ba’zi davlatlarda qochqinlar soni aholining sezilarli qismini tashkil etmoqda. Bular jumlasiga, Lebanon va Armeniya (ikkalasi ham deyarli 9%) kabilar kiradi. Qochqinlar ko‘paygani sari, ular o‘zlari bilan urf-odatlari va madaniyatlarini olib keladi va ular mahalliy aholining urf-odatlar bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetadi.

3. Xavfsizlik. Ko‘p sonli qochqinlarning ko‘chishi jinoyatchilar uchun qulay fursat yaratmoqda. Ularning noqonuniy mollarni kontrabanda yo‘li bilan boshqa davlatga olib o‘tishini qulaylashtirmoqda. Bunday ulkan olomon orasida jinoyatchilar sezish va qo‘lga deyarli imkonsiz vazifa.

Ko‘p holatlarda qochqinlarga ishlash va pul topish uchun huquq berilmaydi va ustiga-ustak, resurslar yetishmasligi ham mavjud. Shu sababli ular pul topishning boshqa noqonuniy yo‘llarini qidirishga majbur bo‘lishadi.

O‘zbekiston. Avvalambor, O‘zbekiston qochqinlarni qabul qiladimi yoki yo‘q degan savolga job bersak. Yo‘q, qochqinlarni qabul qilinmaydi. 2021-yil hatto Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston afg‘onistonlik qochqinlarni qabul qilmasligi, ammo ularga ko‘maklashishini e’lon qilgan. O‘zbekiston 1951-yilgi qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya yoki uning 1967-yilgi protokolining a’zosi emas. Shu sababli, davlat qochqinlar bo‘yicha aniq majburiyatlarni o‘z bo‘yniga olmagan. Uning qo‘shnisi bo‘lmish Afg‘onistondan millionlab qochqinlar chiqqaniga qaramay, O‘zbekiston shu vaqtga qadar atiga 12 ta qochqinni qabul qilgan. 2021-yil 13000 afg‘on qochqini davlatga kiritilgan, ammo ular qisqa muddatli viza asosida bu yerda hisoblanadi. Ular Afg‘onistondagi holatlarni hisobga olgan holda qaytib keta olishmaydi. Shunday bo‘lsa-da O‘zbekiston Termiz shahrida BMT Qochqinlar bo‘yicha oliy komissariligining Gumanitar logistika markazi mavjud. Bu yer Afg‘onistonga qochqinlar uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni tezkor yetkazib berish vazifasini bajaradi.

O‘zbekistonning bunday qaroriga bir qancha asosli sabablar mavjud. Yuqorida ko‘rdikki, qochqinlarning ommaviy iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lmagan davlatlarga kelishi faqatgina mahalliy xalq uchun ko‘plab muammolarni olib keladi. Shuningdek, O‘zbekiston doimo barcha davlatlar bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatishga harakat qilgan va hokimiyat Tolibon bilan ham xuddi shunday munosabatlarga qaratilgan siyosatni olib bormoqda. Kelajakda qo‘shni Afg‘oniston bilan ko‘plab iqtisodiy hamkorliklarni amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Oxirgi sabab, O‘zbekistonda ichki ko‘chirilgan shaxslar soni ko‘payib bormoqda. Bunga iqlimdagi o‘zgarishlar va orol dengizi muammosi asosiy sababdir. 2018-yilning o‘zida bunday shaxslar 79000 ni tashkil etgan. 2020-yil Sardoba to‘g‘onining qulashining o‘zi 70000 insonni o‘z uylarini tark etishga majbur qildi.

Xulosa. Ko‘rdikki qochqinlar o‘z davlatlarini tark etishga ko‘plab sabablar mavjud. Xalqaro hamjamiyat ularni himoya qilish uchun xalqaro hujjatlar yaratgan, turli tashkilotlar tashkil etgan va qo‘ldan kelgancha amaliy yordam berishga urinmoqda. Qurbi yetgan davlatlar esa ularni huddi o‘z fuqarolariga teng imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ammo, qochqinlarning kelishi o‘z salbiy oqibatlari ham mavjud. O‘zbekistonning qochqinlarni qabul qilmaslik, balki ularga yordam berish bilan cheklanish siyosati esa o‘z asoslantirilgan sabablariga ega. So‘z yakunida aytmoqchimizki qochqinlar ham biz-u siz kabi oddiy inson, ular bunday og‘ir hayotni yoki kimningdir yelkasiga yuk bo‘lishni hech qachon tanlashmagan. Agar imkonlari bo‘lganda o‘sha zahotiyoq o‘z ona yurtlariga qaytgan bo‘lishardi. U paytgacha ularni himoya qilish va zarur yordamni ko‘rsatish nafaqat bir davlat yoki tashkilotning balki butun insoniyatning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BMT Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi rasmiy sayti:

2. BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissarlik idorasi rasmiy sayti: :

3. Human Rights Watch nodavlat tashkiloti rasmiy sayti:

4. Shimoliy Amerikadagi Yahudiylar media tashkiloti rasmiy sayti:

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining gumanitar ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasining gumanitar ma’lumotlar bo‘yicha rasmiy sayti:

6. Polsha hukumatining rasmiy sayti:

7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Bangladesh Siyosat tadqiqot instituti (PRI) va Cox's Bazar mahalliy ma'muriyati bilan hamkorlikda tayyorlangan hisoboti:

8. Jahon Bankining rasmiy onlayn platformasi:

9. O‘zbekistondagi rasmiy yangiliklar sayti:

10. Ichki ko‘chirishni monitoring qilish markazi rasmiy sayti:

11.1951-yilgi Qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya